



18 Mar 2019

I.Karimov nomidagi “Toshkent” xalqaro aeroportida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zLiDep fraktsiyasi a‘zosi D.Fayziyeva, O‘zR IIB “Toshkent” aeroportida jamoat xavfsizligi ta‘minlash bo‘limi xodimi S.Abdushukurov ishtirok etdi.

Yig‘ilishda korrupsiyaning jamiyat barqaror rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi haqida so‘z berib, ushbu illatni oldini olish uchun aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarurligi aytib o‘tildi. Shuningdek, yosh avlodni antikorrupsiyon ruhda tarbiyalash, jamoat nazoratini ta‘minlash va ushbu g‘ayriijtimoiy hodisaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni alohida ta‘kidlandi.



Tadbir davomida poytaxt aeroporti xodim va yoshlari korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan qonun loyihalari bilan tanishtirildi va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida tushunchalar berildi.

Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan uchrashuvda ishtirokchilar o'zlarining savollariga to'liq javob oldilar va bu borada profilaktik ishlarni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirdilar.

2700



[RSS](#)

[Yuqoriga Qaytish](#)

[PDF Yuklash](#) [Print](#)

Источник URL (изменение 25/03/2019 - 11:01): <https://www.uzairways.com/uz/news/maqsad-korrupsiyaning-oldini-olish>